

SHASHMAQOM SARAXBOR SHO'BALARI

Dospo'lova Jarqinay Nurqanatovna
Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik
fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Musayev N. U

Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik
fakulteti Musiqa ta'limi kafedrası katta o'qituvchisi

Toshpo'latov Jasur Baxrom o'g'li

Chirchiq davlat pedagogika universiteti San'atshunoslik
fakulteti Musiqa ta'limi yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya:

O'zbekiston o'z davlat mustaqilligiga erishgach, azaliy milliy qadriyatlarining qayta tiklanishi o'laroq, ajdodlarimiz ma'naviy merosiga bo'lgan ruhiy talab-ehtiyoj tobora ortmoqda. Jumladan, mumtoz musiqamizdagi "...muqaddas kuylar timsoli - maqomlar ham ana shu "ma'naviy zarurat" kesimida o'zining munosib o'rnini topayotgani" alohida e'tiborga molikdir l.

Kalit so'zlar: maqom, shashmaqom, sozanda, Saraxbor

SHASHMAKOM SARAKHBOR BRANCHES

Dospo'lova Jarqinay Nurqanatovna
Chirchik State Pedagogical University,
Faculty of Arts, Music Education, 3rd level student
Musayev N.U
Senior teacher of the Department of Music Education,
Faculty of Arts, Chirchik State Pedagogical University
Tashpolatov is the son of Jasur Bakhrom
Chirchik State Pedagogical University,
Faculty of Arts, Music Education, 3rd level student



Abstract: After the independence of Uzbekistan, the spiritual need for the spiritual heritage of our ancestors is growing, as the ancient national values are restored. In particular, it is noteworthy that in our classical music, "the symbol of sacred melodies - maqoms also find their rightful place in this" spiritual necessity".

Keywords: maqom, shashmaqom, sozanda, Sarakhbor

"Darhaqiqat, ajdodlarimiz tomonidan ardoqlangan mumtoz musiqa obidalarini badiiy-ma'naviy madaniyatimizning ajralmas mulkiga aylangan. Shu jumladan, o'zbek musiqa merosining ko'hna va hamisha navqiron maqom san'ati ham asrlar davomida har xil ko'rinishlarda namoyon bo'ldi, taraqqiy etdi".

"Maqomlar Sharq xalqlarida juda qadim zamonlardan mavjud bo'lagi musiqa janridir. Ular bu xalqlarning o'ziga xos musiqa boyliklari asosida kasbiy sozanda va xonandalar tomonidan yaratilgan va uzoq madaniy tarixiy taraqqiyot jarayonida mustaqil musiqa janri sifatida yuzaga kelgan"².

Maqom atamasi arabcha so'z bo'lib, "o'rin", "turar joy" ma'nolarini anglatadi.

"Musiqa istilohida maqom - musiqa cholg'ularida kuy va ashulalarni tashkil qiladigan

tovushlarni joylashadigan o'rni, ya'ni parda ma'nosida keladi". XV asr musiqa nazariyotchisi Zaynulobiddin Xusayniyning "qonun"ida maqomga quyidagicha ta'rif

berilgan: "Sozning dastasiga bog'lanadigan xalqasimon to'siqlar (so'zma-so'z "xalqalar")ni "Maqom" eydilar"³. Maqomlar yuksak badiiy xamda estetik kuchga ega

bo'lgan asarlardir.

Shashmaqom ashula bo'limi birinchi guruh sho'balari.

Shashmaqom shakli uzoq o'tmishdagi bastakorlik an'analarining mahsuli sifatida, maqomchilikdagi ustoz-sozanda va xonandalarning boy tajribasiga asoslangani holda yuzaga kelgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

"Shashmaqom tizimiga kirgan har bir maqomning cholg'u bo'limidagi kuylar birin-ketin ijro etilganidan so'ng, uning ashula bo'limidagi sho'balariga o'tiladi.

Maqomlarning ashula bo'limida bir nechadan sho'balar mavjud. Ushbu sho'balarni



ikki qismga (guruh)ga ajratib ko'rib chiqamiz. Maqomlar ashula bo'limidagi birinchi


guruhga kirgan sho'balari - Saraxbor, Talqin, Nasrlar va ularning taronalari hamda Ufarlar birin-ketin ijro etiladi. Dastlab, Saraxborlar taronalari bilan ijro etilib, Talqinlarga va ularning taronalari o'tiladi. Keyin Nasr yo'llari taronalari bilan o'qilib, Ufarlar ijro etiladi. Shu bilan oxirgi suporish orqali Shashmaqom ashula bo'limining birinchi qismi tugallanadi"⁴.

Suporish (forschadan - topshiriq, havola) - o'zbek va tojik mumtoz ashula yo'llari, ayniqsa, maqom turkumlarining tushirim qismi. Shashmaqomda Suporish sho'balari turkumining ijro etilishida ularning birini ikkinchisiga (masalan, Saraxbor sho'balari - Talqinlarga, Talqinlardan - Nasrlarga) uzviy bog'lash vazifasini ham o'taydi.

Ba'zan yirik sho'baning tugallovchi (xotima) qismi sifatida kelgan Suporishlar tarona ham deyiladi. Suporishlarda doyra usuli o'zidan keyin keladigan sho'balari usulida bo'ladi. Suporishlarning yana bir turi har maqom birinchi guruh sho'balari turkumining tugallovchi qismi bo'lib, Saraxborlarning boshlang'ich kichik bo'lagiga asoslanadi"⁵.

Yuqorida aytib o'tilgan va jadvalda ko'rsatilgan olti maqomning har birida mavjud bo'lgan nomdosh sho'balarning ta'siri turlicha bo'ladi va o'zlari mansub bo'lgan maqom yo'lini aks ettiradi. Ularning turli maqomlarda bir xil nom bilan - Saraxbor, Talqin, Nasr va Ufar deb nomlanishiga sabab, asosan doyra usuli hamda ularga aytiladigan she'r vaznlari bir xilligi va umumiyligidir. Ushbu sho'ba nomlari o'zlari mansub bo'lgan maqomlar, ba'zan sho'balari nomi bilan qo'shib yoziladi. Masalan: Saraxbori Navo, Talqini Segoh kabilar maqomlar nomi bilan, Nasri Ushshoq, Talqini Uzzol, Ufari Chorgoh kabilar esa sho'balari nomi bilan ifodalanishi mumkin"⁶.






"Talqin - arab tilida "tushuntirish", "nasihat etish" degan ma'noda keladi. Talqinlarning "nasihat" mazmuni Shashmaqomga aytiladigan XIX asrda tuzilgan she'r to'plamlarida ham o'z aksini topgan. Masalan, Talqini Navoning she'r matni shunday beriladi:

*Agar bo mardumi dono nishini,
Sarosar az hama bolo nishini.
Agar nodon buvad hamsuhbati tu,
Hamon behtar, ki tanho nishini.*

Bu sho'balari Iroqdan tashqari hamma maqomlarda mavjud va Buzrukda - Talqini Uzzol, Rostda - Talqini Ushshoq, Navoda - Talqini Bayot, Dugohda - Talqini Chorgoh, Segoh maqomida esa Talqini Chorgoh deyiladi"⁷. Talqinlarning takt-ritm o'lchovi va doyra usuli 3/8 3/4 yoki aksincha

joylashtirilgan tartibdagi o'lchovda bo'ladi



Nasr - arabcha so'z bo'lib "ko'mak", "zafar" ma'nolarida ishlatiladi. Nasrlarning asl mohiyatiga qarab o'tmishda zafar ashulasi sifatida qo'llanilgan, degan fikrga kelish mumkin.

"Nasrlar Shashmaqom ashula bo'limida eng ko'p sonni tashkil etuvchi sho'balardir ular har bir maqomda uchraydi va olti maqom bo'yicha hammasi bo'lib 14 ta:

Buzruk maqomida - Nasrullovi, Nasri Uzzol;

Rostda - Nasri Ushshoq, Navro'z Sabo;

Navoda - Nasri Bayot, Orazi Navo, Husayniy Navo;

Dugohda - Nasri Chorgoh, Orazi Dugoh, Husayniy Dugoh;

Segohda - Nasri Segoh, Navro'zi Xoro, Navro'zi Ajam;

Iroq maqomida esa Muxayyari Iroq deb yuritiladi".

Nasrlarning takt-ritm o'lchovi 6/4 (olti chorak) bo'lib, doyra usuli quyidagicha ijro etiladi

Ufarlar. Shashmaqom ashula bo'limining birinchi qismi tamomlanishida aytiladigan Ufarlar ma'lum nasrlardan ritmik ham melodik variatsiya sifatida ishlatilgan. Shuning uchun ham ufar olti maqomning har birida: Buzruk maqomida -Ufari Uzzol; Rost maqomida - Ufari Ushshoq; Navo maqomida - Ufari Bayot; Dugoh maqomida - Ufari Chorgoh; Segoh maqomida - Ufari Segoh; Iroq maqomida esa Ufari Muxayyari Iroq, deb nomlanadi.

Ufarlarning lug'aviy ma'nosi xozircha ma'lum emas. Musiqa nazariyasiga bag'ishlangan manbalarda Ufar ma'lum doyra usulining nomi deb ko'rsatilgan.

Ufarlarning takt-ritm o'lchovi 3/4 doyra usuli quyidagichadir

Shashmaqom ashula bo'limining birinchi (asosiy) qismiga kirgan sho'balari birin-ketin, uzluksiz ravishda ijro etiladigan bo'lsa butun bir turkumni tashkil etadi. Bu sho'balari Ufarlar va Suporishlar bilan tugallanadi9.

Shashmaqom Saraxbor sho'balari.

Saraxbor (fors.-arab. - bosh xabarlar) - Shashmaqomning har bir maqomda




ashula bo'limi boshlanadigan birinchi, bosh sho'ba. Saraxborlar maqom nomi bilan qo'shilib, Saraxbori Buzruk, Saraxbori Rost, Saraxbori Navo, Saraxbori Dugoh, Saraxbori Segoh va Saraxbori Iroq kabi ataladi. O'z navbatida, har bir Saraxborning bir necha (6 tagacha) taronalari mavjud.


Asosiy Saroxborlardan tashqari Dugoh maqomining ikkinchi guruh sho'balar tarkibiga Saraxbori Oromijon deb nomlangan sho'ba ham kirgan"10.

Saraxborlarning takt-ritm o'lchovi 2/4 (ikki chorak) bo'lib, doyra usuli ikki xil ijro etiladi:

Buzruk, Rost, Navo va Dugoh maqomlarining Saraxborlari shu doyra usullarining birinchi turi jo'rligida ijro etiladi:



Segoh va Iroq maqomining Saraxborlari esa ikkinchi turi jo'rligida ijro etiladi:



Saraxborlarga o'qiladigan g'azallar quyidagi she'r vaznlariga to'g'ri keladi:

Muzorei musammani axrabi makfufi maqsur:

Mafuvlu-foilotu-mafoiylu-foilon

-- □□ - □ - □□ □ -- □□ - □ -

Mujtasi musamman maxbuni maqtun musabbag':

Mafoilun-failotun-mafoilun-fa'lun

□ - □ - □□ □ -- □ □ - □ - □ --

Mutaqoribi musammani mahzuf:

Fauvlun-fauvlun-fauvlun-faul

□ -- □□ -- □ □ -- □ □ -

Ramali musammani mahzuf:

Foilotun-foilotun-foilotun-foilun.

- □ -- □ - □ -- □ - □ -- □ -

Saraxborlar tarkibiy jihatdan ko'rinishda juda murakkabdir. Ularda

Shashmaqomdagi boshqa sho'balar singari bir nechtadan namudlar uchraydi.

Jumladan,

Saraxborlarda quyidagi namudlar uchraydi: Saraxbori Buzrukda Namudi Uzzol



va Namudi Muxayyari Chorgoh; Saraxbori Rostda Namudi Segoh, Namudi Uzzol va

Namudi Muxayyari Chorgoh; Saraxbori Navoda Namudi Oraz va Navoning dunasri; Saraxbori Dugohda Zebo pari va Namudi Muxayyari Chorgoh; Saraxbori Segohda Namudi Oraz va Saraxbori Iroqda Zebo pari va Namudi Muxayyari Chorgoh uchraydi.

Maqomlarni ijro etishda xonanda uchun shu yuqorida ko'rsatilgan namudlar bilan kifoyalanish yoki ularni tushirib qoldirish, ba'zan bunga mos keladigan yangi namudlar kiritish ixtiyoriydir. Ba'zi hofizlar o'z imkoniyatiga qarab, ma'lum namudlar qo'shib yoki mavjud namudlarni tushirib qoldirib, shu bilan birga ularni qisqartirib o'qishlari ham mumkin.

Maqomshunos olim (maqomlar bilimdoni) Oqilxon Ibrohimov shunday deydi: "Juda ham ko'pchilik namudlar masalasida qat'iy qonuniyatga amal qilishga harakat qilishadi, lekin buni unchalik to'g'ri deb bo'lmaydi. Qadimda xofizlar birgina asarning ijrosida kerak bo'lsa sakkiztagacha namuddan foydalana olishgan. Saraxborlarning doira usulidagi kuy va ashulalar o'zbek-tojik xalqlarining oddiy xalq musiqa asarlarida juda ko'plab ishlatilgan. Ayniqsa hozirgi kunda ham bastakorlar va kompozitorlar Saraxborlar uslubida ko'plab musiqa asarlari yaratmoqdalar. Binobarin, Saraxborlar puxta ishlangan original musiqa asarlaridir. Saraxborlar ijro etilgandan so'ng, bevosita ularning taronalari ulanib ketadi. Saraxborlar boshqa sho'balarga qaraganda ko'pgina taronalarga ega. Taronalar Saraxbori Buzruk, Saraxbori Dugoh va Saraxbori Iroqlarning har birida oltitadan, Saraxbori Rostda to'rtta, Saraxbori Navoda ikkita, Saraxbori Segohda yettita. 12 Saraxborlar haqida tushunchaga ega bo'lish maqsadida Saraxbori Navoning sho'ba shaklini ko'rib chiqamiz.

Saraxbori Navoda ashula yo'li bir xat (daromad) bilan boshlanadi:



Uning ikkinchi xati Miyon parda bilan davom etadi:






Uchinchi xatida esa Namudi Oraz keladi:



To'rtinchi va beshinchi xatlari Namudi Navo, oltinchi xati Miyonxat (parda)ning takrorlanishi va ashulaning tushurilish qismidir:



Saraxborlarning taronalarida ham xalq kuylari unsurlari ko'p uchraydi.

Taronalar maqom ashula bo'limining birinchi qismidagi sho'balardan so'ng ijro etiladigan kichik shakldagi ashula bo'lib, raqamlar bilan ajratiladi, ya'ni Saraxbori Buzrukning I-II-III va hokazo taronalari kabi ataladi.




Tarona musiqa istilohida kuy yoki ohang ma'nosida keladi. Aruz ilmida esa, she'ning ruboiy shaklini ifodalovchi nomdir. Taronalarni ijro etishda, dastlab, shu ruboiy vaznlardagi she'rlardan foydalanilgan. Keyinchalik g'azallarning bir qismi (to'rt misrasi) dan ham foydalanilgan. Taronalarning she'r matnlari orasida aruz

formasiga tushirib bo'lmaydigan oddiy xalq she'r va qo'shiqlari ham uchrab turadi. Taronalarda 3/4 (uch chorak) takt-ritm o'lchovi juda ko'p ishlatiladi. Shu o'lchovdagi

doyra usuli turlicha zarb birliklari bilan ijro etilishi mumkin:

Bunday doyra usullari Saraxbori Buzrukning I-II-III taronalarida, Saraxbori Rostning IV-taronasida, Saraxbori Dugohning II-III-IV-V taronalarida, Saraxbori Segohning II-IV taronalarida va Saraxbori Iroqning III-IV-V-VI taronalarida uchraydi.

Takt-ritm o'lchovi 4/4 (to'rt chorak) doyra usulida bo'lgan taronalar Saraxbori Buzrukda (IV tarona) va Saraxbori Segoh (I tarona)da keladi:"



Ko'pchilik milliy mumtoz musiqamiz ihlosmandlariga ma'lumki, xalqimizning musiqa boyligi juda xam ko'p qirrali, sermazmun va rang-barangdir. Jozibador hamda ajoyib kuylarimiz kishiga quvonch, xursandchilik bag'ishlaydi. Kishining oliyjanob fazilatlarini, xis-tuyg'ularini ifodalab beruvchi kuchga egadir.

Shashmaqomning ajoyib durdonalari musiqa boyligimizni o'rganishda alohida ahamiyatga ega. Ular yangi musiqa asarlari yaratilishida bitmas-tuganmas manbaa hisoblanadi. Shashmaqom ashula bo'limining bosh va asosiy sho'balari asosida yaratilgan ikkinchi guruh sho'balari bastakorlar tomonidan ijodiy ishlangan.

"Shashmaqom Saraxbor sho'balari" mavzusi bo'yicha ma'lumotlar jamlab, tahlil qilib, ularni o'z kurs ishimizda ko'rsatishga harakat qildik. Madomiki shunday ekan, ustozlarimizning bizgacha me'ros bo'lib kelgan musiqa boyligi, qo'lyozmalari hamda yaratgan go'zal durdona asarlarini ko'z qorachig'imizday asrab avaylashimiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Исҳоқ Ражабов. Мақомлар масаласига доир. Т.: 1963й.
2. Исҳоқ Ражабов. Мақомлар. Т.: "San'at" 2006й.
3. Исҳоқ Ражабов. Мақом асослари. Т.: 1992й.
4. Шаҳноза Ойхўжаева. Мақом тароналари. Т.: 2011й.
5. Иброҳимов О.А. Мақомлар семантикаси. Т.: 1996- йил.
6. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 5-жилд. Т.:2003й.



7. Ўзбекистон миллий энциклопедияси 7-жилд. Т.:2004й.

8. О. Матёкубов. Мақомот. Т.: “Musiqа” 2004 й.

9. Шашмақом сабоқлари Т.: 2005й.

10. Равшан Юнусов. Фахриддин Содиков.Т.: 2005й.

11. Абдурауф Фитрат. Ўзбек классик мусиқаси ва унинг тарихи. Т.: “Фан” 1993й.

12. Юнус Ражабий. Музыка меросимизга бир назар. Т.: 1978й.

13. А.Ҳ.Жабборов “Ўзбекистон бастакорлари ва мусиқашунослари” Тошкент-2004 й.

14. R. Qosimov “An’anaviy ijrochilik” “Fan” nashriyoti. Т.: 2007 yil.

15. Rahmatulla Samadov.An’anaviy doira ijrochiligi Т.: 2004.

